

SULTONOVA Durdona Shuxratilla qizi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
magistratura talabasi
asadullayevad02@gmail.com

QUR'ON ILMLARINING AHAMIYATI VA ZAMONAVIY TASNIFI

АКТУАЛЬНОСТЬ И СОВРЕМЕННАЯ СИСТЕМАТИЗАЦИЯ КОРАНИЧЕСКИХ НАУК

IMPORTANCE AND MODERN CLASSIFICATION OF QURANIC SCIENCES

Annotatsiya: Mazkur maqola Qur'on ilmlari, ularning oyatlarni to'g'ri tushinishdagi ahamiyati hamda hozirgi kundagi zamonaviy olimlar tomonidan tuzilgan tasnifi borasidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Shu bilan bir qatorda muallifning mavzuga oid fikrlari ham keltirilgan. Maqolada zamonaviy tasniflardan biri keltirilgan bo'lib, buning natijasida, o'quvchi ushbu ilmning qanday turlarga bo'linishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Kalit so'zlar va iboralar: Qur'on ilmlari, sababi nuzul, e'rob, nahv, tasnif.

Аннотация: В данной статье рассматриваются коранические науки и их значение для правильного понимания Корана. Представлена классификация этих наук, разработанная современными учеными, а также авторское видение данной темы. В качестве примера приводится одна из современных классификаций коранических наук, что позволяет читателю получить представление о разнообразии этой области знания.

Ключевые слова: Коранические науки, асбаб ан нузул, эраб, нахв, классификация.

Annotation: This article contains information about the sciences of the Qur'an, their importance in the correct understanding of the verses, and the classification made by modern scientists today. In addition, the author's thoughts on the topic are presented. The article presents one of the modern classifications. As a result, on the basis of this example, the reader will have information about the types of this science

Keywords: Qur'anic sciences, the reason for the revelation, e'rab, nahv, classification.

KIRISH

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda diniy ilmlarni o'rganish, ularni to'g'ri talqin qilish ahamiyatlidir. Dunyoning turli mintaqalarida Qur'oni Karim va unga bog'liq ilmlarni o'rganishga bo'lgan sa'y-harakatlar tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Jahon ilmiy tadqiqot markazlarida asl manbalarni o'rganish va ularni tahlil qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu kabi tadqiqotlar Qur'onning ma'no-mazmuni, tafsirini, nozil bo'lish sabablarini aniq bilmay, unga noto'g'ri yondashish natijasida islomga e'tiqod qiluvchilar orasida ixtilof, qarama-qarshilik kabi salbiy holatlar yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan. Oyatlarni asl mazmunini tushinishda mufasssirlarning hayot yo'llarini va tafsirlarini o'rganish, ularning ijtimoiy, diniy, siyosiy va madaniy hayotdagi o'rni ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mufasssirlar asarlarini qiyosiy o'rganish bilan hozirgi kun nuqtai nazaridan dolzarb bo'lgan masalalarning ushbu manbalarda bayon etilgan ilmiy javoblarini jamoatchilikka yetkazish ham jiddiy ishlardan sanaladi.

ASOSIY QISM

“Ulumul Qur'on” (Qur'on ilmlari) fani Qur'onga taalluqli bo'lgan ilmlar, jumladan, oyat va suralarning nozil bo'lish sabablari, Qur'onning jamlanishi va suralar tartibi, oyatlarning makkiy va madaniyga bo'linishi, nosix va mansux, muhkam va mutashobih oyatlar kabi ilmlar, bundan tashqari, bevosita Qur'onga aloqador tafsir, qiroat, Qur'on e'roblari ilmi, lug'atlar ilmi kabi jihatlarni o'rganadi [1:23].

Imom Suyutiy Qur'on ilmlari qatoriga astronomiya, muhandislik, tibbiyot kabi ilmlarni ham kiritgan. Imom Badriddin Zarkashiy o'zining “Burhon fi ulumil Qur'on” kitobida, Jaloliddin Suyutiy “Itqon fi ulumil Qur'on” asarida “Usulut tafsir” fanini “Ulumul Qur'on” kitoblari ichiga kiritib yuborishgan [3:13].

Bizga yaqin davrda yashab o'tgan Mannoul Qatton, Rumi singari olimlar bu ikki fanni bitta ilmga dalolat qiluvchi sinonim tushunchalarni qamrab olgan e'tiboridan tafsir usullari fanini Qur'on ilmlari fani ichiga kiritib yuborish joiz deganlar [5:27].

Aslini olganda, tafsir usullari fani Qur'on ilmlari fanining bir qismi sifatida rivojlangan va keyinchalik bu borada alohida kitoblar yozilgan. Ular orasidagi farq haqida gap ketganda boshqa boshqa ilmlar haqida emas, balki bir fanning ichidagi asosiy qismining o'ziga xos jihatlari haqida mulohaza yuritiladi.

Qur'on ilmlari, tafsir fani tarixi barcha ilmlar singari Payg'ambar (s.a.v), va sahobalar davriga borib taqaladi. Payg'ambar (s.a.v) sahobalarga ular uchun tushunish qiyin bo'lgan oyatlarni sharhlab, tushuntirib berar edilar. Buni quyidagi voqea orqali tushunishimiz mumkin: "Imon keltirgan va imonlariga zulm (shirk)ni aralashtirmaganlar – aynan o'shalarga xavfsizlik (bordir) va ular hidoyat (to'g'ri yo'l) topgan zotlardir" oyati nozil bo'lganda, sahobalar kim ham o'ziga zulm qilmaydi, ey Rasululloh, dedilar [7:213]. Ya'ni oyatdagi "zulm" so'zidan aynan nima nazarda tutilayotganini tushunolmadilar. Shunda U Zot (s.a.v) "zulm" so'zini tafsir qilib, bundan shirk nazarda tutilayotganini aytadilar va: "Alloh taoloning "Albatta, shirk – katta zulmdir", deganini o'qimaganmisizlar", dedilar.

"Qur'on ilmlari" fanining shakllanish davri va kitoblar shaklida yuzaga kelishi hadis ilmiga nisbatan ancha keyinroqdagi davrga to'g'ri kelgan. Hijriy ikkinchi asr hadis ilmining tadvin davri deb e'tibor qilinadi. Ayrim ulamolar Qur'oni karim tafsiriga doir hadislarni to'plash bilan mashhur bo'lishgan. Bunga Yazid ibn Horun Sulamiy (v. 117 y.h.), Sho'ba ibn Hajjajlarni (v. 160 y.h.) misol tariqasida keltirish mumkin. Keyingi asrlarga kelib esa ushbu ilmga doir ta'lifotlar ko'pchilikni tashkil eta boshlagan [2:11].

Keyingi davrlarga kelib ushbu fan ham rivojlandi va kitoblarda u haqida yozila boshladi. Dastlab, tafsir kitoblarining muqaddimalarida bu ilm haqida so'z yuritildi. Bunday muqaddimalarning eng mashhuri "Tafsiri Tabariy" kitobining muqaddimasidir. Shuningdek, ushbu fan odatda, Qur'on ilmlariga doir yozilgan kitoblar ichidan joy olardi.

"Ulumil Qur'on" ko'p sohalarni o'z ichiga olgan bo'lib, jumladan, quyidagilarni aytish mumkin: Qur'on tarixi, nozil bo'lish sababari, jamlanishi, rasmi xati, oyatlar soni, muhkam va mutashohihi, tafsiri va boshqalar. [1:25].

"Ulumil Qur'on"ga to'rt roshid xalifa davrlarida asos solina boshladi. Hazrati Abu Bakr davrlarida

Qur'oni Karim yozma shaklda jamlanib, mus'haf shakliga keltirildi. Hazrati Usmonning davrlarida Qur'oni Karimdan nusxa ko'chirish ishlari yo'lga qo'yildi, Qur'oni Karimni xatga tushirish – "rasmi xat" ilmiga, Qur'oni Karimni muayyan shaklda ta'lim berish faoliyatiga asos solindi. Hazrati Ali davrlarida Qur'oni Karimga bog'liq ilmlar paydo bo'la boshladi. Odamlar Qur'oni Karimni arab tili qoidalariga zid o'qiyotganlari mulohaza qilinib, nahv ilmiga asos solindi. Undan keyin esa "Qur'on e'robi ilmi" yuzaga keldi.

To'qqizinchi hijriy asrda esa imom Jaloluddin Suyutiy (911 hijriy sanada vafot etgan) "Itqon fi ulumil Qur'an" nomli kitobni ta'lif etdi. Bu kitob o'z sohasidagi barcha kitoblarning gultoji bo'ldi. Undan barcha foydalandi va foydalanmoqda.

Bizning davrimizda, islomiy ilmlarni qayta ta'lif qilish jarayonida "Ulumi Qur'on"ga oid kitoblarni ham qayta yozishga ehtiyoj tug'ildi. Buning ustiga, "Azhari Sharif" va shunga o'xshash boshqa ilm dargohlarida "Ulumi Qur'on" dars sifatida o'qitila boshladi. Shu munosabat bilan "Ulumi Qur'on"ga oid kitoblar ham yangidan yozila boshladi [6:12].

Shayx Tohir Jazoiriy "Tibyan fi ulumil-Qur'an" nomli asarni, Shayx Muhammad Aliy Saloma "Manhajul-Furqon fi ulumil Qur'an", Shayx Abdulloh Darroz "Nabaul-azim anil-Qur'anil-karim" nomli asar tasnif qildi. Shayx Muhammad Abdulazim Zarqoniy "Manahilul-irfan fi ulumil-Qur'an" kitobini yozdi. Shayx Muso Shohin Loshinning "Laalil-hison fi ulumil-Qur'an" nomli kitobi chop etildi. Shayx Subhiy Solih "Mabahis fi ulumil-Qur'an" kitobini nashr etdi. Shayx Manno' Xalil Qatton ham "Mabahis fi ulumil-Qur'an" nomli kitob yozdi. Shayx Ibrohim Abdulloh Rufayda Tripolidagi "Kulliyatud-da'va al-Islamiyya" talabalari uchun "Muzakkarotun fi ulumil-Qur'an" nomli darslikni tayyorladi. Ushbu bitiklarning ba'zilar u kishining xotirasiga bag'ishlab chop etilgan kitobda nashr etildi [6:13].

Bularga qo'shimcha qilib, Qur'on ilmlarining ahamiyatini tushuntirishda turli usullardan foydalanildi hamda ular ichida tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi.

Doktor Nabil Sabriy tomonidan yozilgan doktorlik dissertatsiyasi bo'lib, unda tadqiqotchi Qur'on ilmlarining turlarini tasniflash mavzusiga to'xtalib, uning metodologiyasiga atalgan.

Doktor Xalil Mahmud tomonidan mavzuni aniq va muvozanatli metodologiya va mezonlar

bilan ko'rib chiqqan. Ba'zi jihatlarda batafsilroq va soddalashtirilgan holda tasniflangan.

Musaid Tayyor, Maahad Shotibiy, Farida Zumrad, Fazl Hadiy va shu kabi olimlar tasniflashtirganlar orasida eng mashhurlari hisoblanadi. Quyida esa olima Farida Zumrad tomonidan tasniflangan usuli keltiriladi:

Birinchi o'rinda umumiy mavzularni 4ga bo'lib, so'ng ularni mavzular ichidagi muhim masalalar qismiga ajratadi. Muhim mavzular: nozil bo'lish ilmi, qiroat imi, tilshunoslik va boshqa ilmlar deb nomlangan. Muhim mavzular ichidagi masalalar: oyatlarning makkiy yoki madaniyligi, mutavotir ekani, tajvid qoidalari, lafzlarning holati, fasohati, hamda grammatik jihatlari, sura nomlari va shu kabi ilmlarni o'z ichiga qamrab olgan [4:12].

XULOSA

Islom olamida Qur'onshunoslik va Qur'on oyatlarini sharhlash borasida naqliy tafsir (oyatni oyat, hadis va sahobalar so'zi bilan tafsir qilish) bilan birga, aqliy tafsirlarga (oyatni aql va ijti-hod, aqidaviy, fiqhiy, tasavvufiy, falsafiy, mantiqiy uslub bilan tafsir qilish) bilan bog'liq sohalar chuqur tahlil qilib kelinmoqda. Bunday tadqiqotlar Misr, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirli-gi, Suriya, Iordaniya, Iroq, Angliya, Germaniya va boshqa mamlakatlarning yirik ilmiy markazlarida tizimli yo'lga qo'yilgan. Biroq bugungi axborotlashgan jamiyatda ushbu masalaga keng qamrovli va yetarli darajada ahamiyat berilmaganligi sababli Qur'on oyatlarini noto'g'ri talqin qilish holati kuzatilmoqda. Buning oldini olishda ahli sunna val jamoa aqidasi-ga asoslangan tafsir asarlarini hamda u yerda qo'llanilgan ilmlarni o'rganish zaruratga aylanmoqda. Qur'on ilmlari fani esa, Qur'onni to'g'ri tushunish, suralarning nozil bo'lish sabablarini anglashga, shu bilan birga oyatlarni to'g'ri talqin qilishga xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotlar ixchamroq usulda bu ilmlarning sinflashtirish uni osonroq, usulda tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Abdulazim az-Zarqoniy. Manahilul irfon fi ulumil Qur'on. –Damashq: Iso Bobiy, 2011.
2. Mannau-l-Qatton. Mabahis fi ulumil Qur'on. – Riyoz: Maktabatul maorif, 2011.
3. Musoid ibn Sulaymon Toyyor. Fusulun fiy usulut tafsir. – Riyoz: Darun nashrud duvaliy, 1993.
4. <https://tafsir.net/article/5540/at-tsnyfat-al-m-asrt-l-anwa-alwm-al-qr-aan-rsd-wtqwym>.
5. Dr. Ali ibn Sulaymon Ubayd. Tafsirul Qur'onil karim: usuluhu va zovabituhu. – Riyoz: Tavba, 2010.
6. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'on ilmlari. – T: Hilol-nashr, 2022.
7. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.